




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2024-yil yanvar-fevral oylari




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral oylari)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi - 65,7 %**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
1 196,8 ming so'm**




**Jami korxonalarda
xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi - 74,0 %**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-mart holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral oylari)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-mart holatiga ko'ra)

Soni, birlikda



2024-y.

25 587

2023-y.

26 809

2022-y.

26 624

2021-y.

20 657

2020-y.

15 719

Soni, birlikda

2024-y.

907

2023-y.

871

2022-y.

1 444


2021-y.

903

2020-y.

1 128

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-fevral oylari)




2024-y.

74,7 %


68,2 %

2020-y.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024-yil yanvar-fevral oylarida)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	4 982,8	100,0	115,8
Samarqand sh.	2 008,5	40,3	122,3
Kattaqo'rg'on sh.	135,7	2,7	114,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	151,7	3,0	110,4
Bulung'ur	135,6	2,7	110,3
Jomboy	210,0	4,2	110,8
Ishtixon	181,0	3,6	110,6
Kattaqo'rg'on	177,6	3,6	110,3
Qo'shrabot	97,1	1,9	110,9
Narpay	163,8	3,3	111,1
Payariq	222,6	4,5	110,1
Pastdarg'om	348,0	7,0	110,3
Paxtachi	102,7	2,1	109,9
Samarqand	371,2	7,5	121,5
Nurobod	98,6	2,0	109,8
Urgut	358,5	7,2	110,4
Toyloq	220,2	4,4	109,8

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Samarqand sh.	3 468,9	119,9 %
Kattaqo'rg'on sh.	1 440,7	112,3 %
Samarqand	1 374,4	118,9 %
Jomboy	1 121,7	108,2 %
Toyloq	1 008,3	107,2 %
Pastdarg'om	917,9	108,0 %
Oqdaryo	885,9	107,7 %
Payariq	824,3	107,5 %
Narpay	726,8	109,1 %
Qo'shrabot	691,1	108,7 %
Paxtachi	679,6	108,3 %
Bulung'ur	679,3	107,9 %
Ishtixon	663,1	108,3 %
Urgut	648,9	107,7 %
Nurobod	612,4	107,6 %
Kattaqo'rg'on	610,4	108,1 %

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	4 982,8	100,0	115,8
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	233,2	4,7	112,3
Moliyaviy xizmatlar	845,5	17,0	116,1
Transport xizmatlari	1 266,9	25,4	114,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 144,0	23,0	110,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	252,7	5,1	116,8
Savdo xizmatlari	1 111,9	22,3	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	127,3	2,6	119,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	256,4	5,1	143,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	109,6	2,2	125,3
Ijara xizmatlari	144,9	2,9	116,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	151,1	3,0	111,4
Shaxsiy xizmatlar	235,8	4,7	111,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	82,4	1,7	124,9
Boshqa xizmatlar	165,1	3,3	114,9

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


2024-yilning yanvar-fevral

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining to'rttan uch qismini, ya'ni **73,4** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-fevral oylari)




Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	374,1	112,3
Kattaqo'rg'on sh.	31,9	112,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	39,7	111,7
Bulung'ur	35,7	116,5
Jomboy	59,9	108,9
Ishtixon	49,8	112,1
Kattaqo'rg'on	45,7	112,2
Qo'shrabot	25,9	112,0
Narpay	42,8	111,9
Payariq	46,0	114,3
Pastdarg'om	81,2	110,6
Paxtachi	22,4	111,7
Samarqand	107,9	114,3
Nurobod	22,7	111,7
Urgut	77,1	112,3
Toyloq	49,1	112,8

2024-yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **1 266,9** mlrd. so'mni, **2023-yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **114,4 %** ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **25,4 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	415,2	125,2
Kattaqo'rg'on sh.	32,3	108,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	51,1	107,7
Bulung'ur	36,0	107,7
Jomboy	69,7	110,4
Ishtixon	55,8	109,1
Kattaqo'rg'on	57,2	109,7
Qo'shrabot	29,9	107,7
Narpay	55,9	109,0
Payariq	58,0	111,9
Pastdarg'om	90,2	110,0
Paxtachi	32,0	107,7
Samarqand	101,6	110,2
Nurobod	26,4	107,7
Urgut	95,7	110,3
Toyloq	59,9	113,9

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)

2024-yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 144,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi.




Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

(2024-yil yanvar-fevral oylari)



Yo'lovchi tashish

73,2 %



Yuk tashish

26,8 %


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-fevral oylari)




2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2024-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **542,8** mlrd. so'mga oshib, **845,5** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **17,0** foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,1 %** ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-fevral** oylarida ularning ulushi **91,6** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	61,0	113,8
Kattaqo'rg'on sh.	7,4	116,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	9,2	113,4
Bulung'ur	9,9	112,2
Jomboy	9,2	113,6
Ishtixon	12,3	107,6
Kattaqo'rg'on	13,1	111,2
Qo'shrabot	6,5	118,1
Narpay	9,4	115,0
Payariq	13,2	110,9
Pastdarg'om	17,8	105,8
Paxtachi	7,0	117,0
Samarqand	15,8	117,7
Nurobod	7,7	111,7
Urgut	23,3	107,9
Toyloq	10,4	113,8


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **256,4** mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **143,4 %** ni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **109,6** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,2 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	76,8	133,3
Kattaqo'rg'on sh.	1,5	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1,4	108,4
Bulung'ur	1,6	111,5
Jomboy	2,0	113,4
Ishtixon	1,6	106,8
Kattaqo'rg'on	3,1	110,2
Qo'shrabot	1,6	101,9
Narpay	1,3	106,3
Payariq	1,5	106,2
Pastdarg'om	3,1	111,0
Paxtachi	0,7	133,6
Samarqand	3,4	112,9
Nurobod	4,8	109,3
Urgut	3,7	110,0
Toyloq	1,5	110,5

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)



2024-yilning yanvar-fevral

oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **127,3** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,2** % ni tashkil etgan.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	44,0	126,9
Kattaqo'rg'on sh.	3,6	113,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	4,0	114,3
Bulung'ur	3,3	114,6
Jomboy	3,9	114,3
Ishtixon	4,3	114,9
Kattaqo'rg'on	4,4	114,4
Qo'shrabot	2,9	114,2
Narpay	5,8	133,0
Payariq	10,2	114,8
Pastdarg'om	8,1	114,6
Paxtachi	6,0	114,2
Samarqand	9,7	115,3
Nurobod	3,1	114,4
Urgut	9,3	112,6
Toyloq	4,7	114,7


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)

2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2024-yilning ushbu davrida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **179,1** mlrd. so'mga oshib, **252,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi


(2024-yil yanvar-fevral oylari)



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)




2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **75,0** mlrd. so'mga oshib, **144,9** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yilning yanvar-fevral** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **40,7** foizni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)




2024-yilning yanvar-fevral oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **151,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2023-yilning yanvar-fevral** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	40,8	111,0
Kattaqo'rg'on sh.	4,4	111,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	6,7	111,2
Bulung'ur	4,9	111,3
Jomboy	8,0	111,4
Ishtixon	7,4	111,6
Kattaqo'rg'on	8,3	112,0
Qo'shrabot	4,3	111,6
Narpay	7,3	111,6
Payariq	7,0	111,5
Pastdarg'om	12,2	111,6
Paxtachi	4,3	111,3
Samarqand	12,3	111,8
Nurobod	3,6	111,1
Urgut	11,8	111,7
Toyloq	7,8	111,6

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



2024-yilning yanvar-fevral oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **82,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: (66) 235-79-35

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.